

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№2

2026
fevral



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 258 sahifa.
2026-yil, fevral

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BANKLARIDA RISK-MENEJMENTNING TASHKILIY MODELLARI.....	26
Madaminov Bekzod Allayarovich	
“HUDUDGAZTA’MINOT” AJ DA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALAR SAMARASI	32
Shukurillaev Jahongir Botir o’g’li	
HARBIY XIZMATCHI AYOLLARNING MAXSUS KIYIM SIFATIGA QO’YILADIGAN DASTLABKI TALABLARNI SHAKLLANTIRISH	37
Abduraxmanova N.D., Mirtolipova N.X., Nasirullayeva G.S.	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ НЕСПЕЦИФИЧЕСКОГО ЯЗВЕННОГО КОЛИТА У ДЕТЕЙ	42
Закирова Бахора Исламовна, Каримов Достон Рустам угли	
ОЦЕНКА ВОЗДЕЙСТВИЯ ФИСКАЛЬНЫХ И КРЕДИТНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ НА РЫНКИ ВЫСОКОЛИКВИДНОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ МОНОПОЛИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	48
Бекзод Умматов	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА.....	55
Вахидов Азизжон Саиджонович	
SUG’URTA FAOLIYATIDAGI MOLIVAVIY RISKLAR: BAHOLASH VA MINIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI	58
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
“ANDIJONDONMAHSULOT” AJ MISOLIDA XARAJATLARNING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI: AMALIY TAHLIL VA TAKOMILLASHTIRISH TAVSIYALARI	62
Xayitboyeva Laylo Oybekovna	
XORIJIIY MAMLAKATLARNING NORASMIY IQTISODIYOT DARAJASINI PASAYTIRISHDAGI TAJIRIBASI	66
Alimardonov G’ayratjon Nuraliyevich	
XO’JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA BARQARORLIK HISOBOTLARI AUDITINI SHAKLLANTIRISH	72
Xolikov Ravshan Anvar o’g’li	
PUL - KREDIT SIYOSATINING TRANSMISSION MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH	76
Obidova Zilola Ikromjon qizi	
HOMILADORLIK DAVRIDA AYOLLARDA UCHRAYDIGAN GESTOZLI KATARAL GINGIVITNI KOMPLEKS DAVOLASHNI OPTIMALLASHTIRISH	81
Nomurodova Farangiz Lazizovna	
AGRAR KORXONALARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA INVESTITSIYA MEXANIZMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA RIVOJLANTIRISH YO’NALISHLARI	87
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	
YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA KICHIK BIZNES IQTISODIYOTINI TA’MINLASHDA INFRATUZILMALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	92
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI BAHOLASH METODOLOGIYASINING MAZMUNI VA TAMOIYILLARI	96
Mavrulov Ravshan Nematjonovich	



УПРАВЛЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫМИ КОММУНИКАЦИЯМИ В ПРОЕКТАХ	101
Носирова Гулираъно Абдулазиз кизи	
DAVLAT BUDJETI JARAYONIDA MONITORING VA MOLIVAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	107
Yax'yayeva Dilfuza Bagdatovna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
RAQAMLI MOLIVA TEXNOLOGIYALARI EVOLYUTSIYASINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI VA YUZAGA KELISHI MUMKIN BO'LGAN XATARLAR TAHLILI	117
Ko'chimov Jahongir Shuxrat o'g'li	
GAZ VA GAZ KONDENSATINI YIG'ISH VA TAYYORLASH TIZIMLARI UCHUN ZAMONAVIY LOYIHALASH USULLARI TAHLILI	123
Abdirazakov Akmal Ibragimovich Namozov Og'abek Maxmud o'g'li	
AGILE PROJECT MANAGEMENT IN THE DIGITAL ERA: STRATEGIES, FRAMEWORKS, AND BEST PRACTICES FOR SUCCESS	128
Utkirova Maftuna Murodjon qizi	
O'ZBEKISTON EKSPORTYOR KORXONALARINING YANGI BOZORLARGA CHIQUISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA MUAMMOLARI	134
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	139
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY JIHATLARI	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
OPTIMIZATION OF ROADSIDE AUTO CAMPING SITES (REST AREAS) ON HIGHWAYS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE: INFRASTRUCTURE GAPS AND CORRIDOR-BASED EVIDENCE FROM UZBEKISTAN	150
Akramov Akbarjon Akmal ugli	
QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION MARKETING YONDASHUVLARINING AHAMIYATI	156
Aminov Abbas Mo'minboy o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA AHOLI ISH BILAN BANDLIGI SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR	160
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
MINTAQADA XUSUSIY TIBBIYOT MUASSASALARIDA MARKETING STRATEGIYASI	165
Yakubov Temur G'anibekovich	
AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI	169
Siroj Zarina Rustambekovna	
AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINING YAIM VA BANDLIKKA TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL	176
Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	181
Ziyodullayev Qahramon	
ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТЬ: ПОЛЬЗА ДЛЯ ЭКОНОМИКИ И ЭКОЛОГИИ	185
Хамдамова Гавхар Абсаматовна	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISHNING MOLIVAVIY VOSITALARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	191
Mamatov Baxodir Quldoshovich	



KO'P QIRRALI VALLARNING SHAKLLANTIRISH METODLARI VA USULLARINI TAHLIL QILISH	197
<i>Xasanov Bobirmirzo Maxmudali o'g'li, Valixonov Dostonbek Azim o'g'li, Alibekov Rasulbek Qanotbek o'g'li</i>	
MINTAQA SANOATINING TARKIBIY TRANSFORMATSIYASI VA UNNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	205
<i>Abdinazarov Xusan Shaymanovich</i>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	209
<i>Nomozova Qumri Isoyevna</i>	
XALQARO STANDARTLAR TALABLARI ASOSIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVINI TASHKIL ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	216
<i>Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li</i>	
QASHQADARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHNI TARTIBGA SOLISH TIZIMI	221
<i>Achilova Firuza Kurbanovna</i>	
BANK MENEJMENTIDA INKLYUZIV MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI, TAMOYILLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI	225
<i>Rajabov Oybek Panjievich</i>	
MINTAQADA OLIY TA'LIM TIZIMINING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	229
<i>Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li</i>	
MAISHIY XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION KLASTER MODELINI JORIY ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	235
<i>Normurodova Zebo Eshmaxmatovna</i>	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INVESTITSiya FAOLIYATINI BOSHQARISH	240
<i>Xatamov Nurbek Ochildiyevich, Sharifi Abdul Fatah</i>	
MOLIYAVIY REJALASHTIRISHNING AMALDAGI MUAMMOLARI VA ULARNI YECHIMI YUZASIDAN TAKLIFLAR	245
<i>Pardayev Jamshid Muzaffarovich</i>	
TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIK RISKLARINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	251
<i>Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li</i>	



TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIK RISKLARINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI



Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li

TDIU-Krems AFU xalqaro qo'shma ta'lim dasturi fakulteti dekan o'rinbosari
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Email: sulaymanovsamandarboy@gmail.com

ORCID: [0000-0002-1909-1331](https://orcid.org/0000-0002-1909-1331)

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklarida likvidlilik riskini baholash va uni boshqarish metodologiyasini takomillashtirish zarurati ilmiy-tahliliy yondashuvda ko'rib chiqilgan. Likvidlilik riski banklarning to'lov qobiliyatini saqlashdagi eng muhim omillardan biri bo'lib, Yangi O'zbekiston sharoitida bank tizimi barqarorligini mustahkamlash uchun bu riskni samarali baholash va boshqarish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Maqolada likvidlilik riskini o'lchashda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar (LCR, NSFR va boshqalar) hamda ularga doir normativ-huquqiy talablar yoritiladi. Agrobank misolida likvidlilik ko'rsatkichlarining tahliliy jadvallari va grafiklari keltirilib, ularning problematik jihatlari tahlil qilinadi. Xulosa qismida muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: likvidlilik riski, bank likvidligi, risklarni baholash metodologiyasi, moliyaviy barqarorlik, prudensial nazorat, stress-test, pul-kredit siyosati, Basel III standartlari.

Abstract. This article examines, from a scientific and analytical perspective, the necessity of improving the methodology for assessing and managing liquidity risk in commercial banks. Liquidity risk is one of the most critical factors in maintaining banks' solvency, and under the conditions of the New Uzbekistan, the effective assessment and management of this risk is of particular relevance for strengthening the stability of the banking system. The article outlines the main indicators used in measuring liquidity risk (LCR, NSFR, and others), as well as the related regulatory and legal requirements. Using Agrobank as a case study, analytical tables and graphical illustrations of liquidity indicators are presented, and their problematic aspects are critically analyzed. In the conclusion, practical proposals and recommendations aimed at eliminating identified problems and shortcomings are developed.

Keywords: liquidity risk, bank liquidity, risk assessment methodology, financial stability, prudential supervision, stress testing, monetary policy, Basel III standards.

Аннотация. В данной статье с научно-аналитической точки зрения рассматривается необходимость совершенствования методологии оценки и управления риском ликвидности в коммерческих банках. Риск ликвидности является одним из ключевых факторов обеспечения платёжеспособности банков, и в условиях Нового Узбекистана эффективная оценка и управление данным риском приобретают особую актуальность для укрепления устойчивости банковской системы. В статье раскрываются основные показатели, применяемые при измерении риска ликвидности (LCR, NSFR и др.), а также соответствующие нормативно-правовые требования. На примере Агробанка представлены аналитические таблицы и графики показателей ликвидности, проведён анализ их проблемных аспектов. В заключительной части разработаны предложения и рекомендации, направленные на устранение выявленных проблем и недостатков.

Ключевые слова: риск ликвидности, банковская ликвидность, методология оценки рисков, финансовая устойчивость, пруденциальный надзор, стресс-тестирование, денежно-кредитная политика, стандарты Basel III.

KIRISH

Bank tizimining moliyaviy barqarorligi va ishonchligini ta'minlashda likvidlilik eng muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Likvidlilik bankning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish qobiliyatini ifodalaydi. Banklar vujudga kelgan davrdan boshlab ularning likvidlilik muammosi doimo dolzarbligini yo'qotmagan – bank mijozlari oldidagi majburiyatlarni bajara olmaslik bankka bo'lgan ishonchning susayishiga va hatto “bank yugurishi” (ommaviy mablag'larni olish) holatiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun banklar ayrim hollarda daromadlaridan voz kechgan holda bo'lsa ham, yetarli darajada likvid aktivlarni saqlab turishga majbur bo'ladi.

Likvidlilik xatarlarini nazorat qilish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-iyundagi “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va kapitallashuvi darajasini oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3066-sonli¹ qaroriga muvofiq, Markaziy bankka tijorat banklarida likvidlik tanqisligi yuzaga kelgan vaziyatlarda 3 oygacha muddatga ta'minotsiz kreditlar ajratish mexanizmini joriy etish vazifasi yuklatilgan. Ushbu favqulodda likvidlik kreditlari faqat to'lovlarning uzluksizligini ta'minlash maqsadida berilishi hamda banklar ularni boshqa maqsadlarda (masalan, yangi kreditlar berishda) ishlatmasligi belgilangan. Qarorga ko'ra, agar shunday kredit olgan bank shundan keyin ham mijozlari oldidagi to'lov majburiyatlarini bajara olmasa, Markaziy bank bunday bankka nisbatan vasiylik tartibini joriy etish huquqiga ega deb belgilangan. Bu chora banklar likvidligini ta'minlash va omonatchilar manfaatini himoya qilishning huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, normativ-huquqiy baza bank likvidligini boshqarish bo'yicha aniq talab va mexanizmlarni o'z ichiga oladi. Jumladan, Markaziy bank tomonidan har kuni likvidlik holati yuzasidan hisobotlar olish va tahlil qilish tizimi yo'lga qo'yilgan, har bir bankda likvidlik monitoringi uchun mas'ul bo'linma va avtomatlashtirilgan axborot tizimi faoliyat yuritishi talab etiladi. Bu talablar banklarga o'z likvidlilik pozitsiyalarini doimiy nazorat qilish va tartibga soluvchi me'yorlardan chetga chiqmaslik majburiyatini yuklaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy olimlar likvidlik riskini boshqarish va baholash borasida ko'plab ilmiy ishlar olib borgan. Masalan, taniqli iqtisodchi J. Sinkey bank faoliyatida likvid aktivlar salmog'i yuqori bo'lishi va zarur paytda bozor orqali tez mablag' jalb qilish qobiliyati muhim deb hisoblaydi.

F. Mishkin moliyaviy barqarorlikka likvidlik riskini boshqarish bevosita ta'sir qilishini ko'rsatib, AQSh va Yevropada qabul qilingan qat'iy likvidlik me'yorlari (masalan, LCR) likvidlilikning oshib ketishining oldini olishda samarali vosita bo'lganini tahlil qilgan.

Shuningdek, O. Lavrushin, V. Usoskin kabi rus bank islohotchilari ham 1990-yillardan boshlab bank likvidligini ta'minlash masalalarini o'rgangan. V. Usoskin, xususan, bank aktivlarining sifati va xatarlarini boshqarish orqali likvidlikni ta'minlash g'oyasini ilgari surgan olimlardan biri sanaladi. Uning ta'kidlashicha, bank aktivlarining asosiy qismini tashkil etuvchi kredit portfelni sifati likvidlik barqarorligiga bevosita ta'sir qiladi – kreditlar o'z vaqtida qaytmasa, bank likvidligi susayadi. Shu bois, V. Usoskin banklarda mijozlarning kreditga layoqatligini chuqur baholash tizimini joriy etish va kredit portfelini diversifikatsiya qilish zarur, deb hisoblaydi. Olimning fikricha, kredit sifatini oshirish va xatarlarni kamaytirish orqali banklar nolikvidlik holatlarining oldini olishi mumkin. Bu fikrni boshqa tadqiqotchilar ham qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, Samartin 2003-yilda o'tkazgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, likvidlik riski va kredit riski o'zaro chambarchas bog'liq, ya'ni aktivlari xavfli bo'lgan banklar likvidlik zarbasiga ko'proq uchraydi. Demak, bank risklarini samarali boshqarish, xususan, kredit va bozor xatarlarini cheklash bankning umumiy likvid pozitsiyasini mustahkamlaydi.

Banklar likvidligini boshqarishda klassik nazariya tamoyillari muhim o'rin tutadi. Tarixiy jihatdan banklar “oltin bank qoidasi”ga amal qilgan, ya'ni aktivlar va passivlar muddatlari maksimal darajada mos bo'lishi lozim deb hisoblangan. Bu qoida germaniyalik olim Hübner tomonidan 1853-yilda ilgari surilgan bo'lib, bank mablag'larini uzoq muddatga bog'lab qo'ymaslik, aks holda to'lovga qodirlikka putur yetishi ta'kidlangan. Klassik yondashuvga ko'ra, tijorat banklari qisqa muddatli, o'zini o'zi likvidlovchi kreditlar, ya'ni tijorat veksellari va hisob-kitob hujjatlari kabi yuqori likvid aktivlarga e'tibor qaratishlari zarur edi. Shuningdek, maturity transformation, ya'ni muddatlarni o'zgartirish darajasini cheklash tavsiya etilgan. Bunda qisqa muddatli omonatlar hisobiga uzoq muddatli kreditlar berishdan tiyilish kerakligi uqtirilgan. Bu tamoyillar bankni to'lovga qodirlik muammolaridan saqlashga qaratilgan.

An'anaviy metodlardan biri likvidlik ko'rsatkichlarini hisoblash hisoblanadi. Masalan, likvid aktivlar ulushi, joriy likvidlik koeffitsiyenti va boshqalar shular jumlasidandir. Bunday statistik me'yorlar bank balansining ma'lum bir vaqt kesimidagi likvidlik darajasini baholaydi. Ko'plab mamlakatlarda joriy likvidlik koeffitsiyenti, ya'ni tezkor likvidlik nisbati joriy qilingan bo'lib, u bankning tez naqdlashtiriladigan aktivlari hajmini qisqa muddatli majburiyatlariga nisbatan o'lchaydi. Ushbu prudensial me'yor banklar yetarli likvid aktivlarga ega bo'lishi zarurligini kafolatlashga xizmat qiladi.

1 <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>



O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda mamlakat bank tizimida ham likvidlik riskini baholash metodologiyasini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishga e'tibor qaratilmoqda. 2019-yilda boshlangan bank islohotlari doirasida Markaziy bank tijorat banklari uchun yangi likvidlik normativlarini joriy etdi. Xususan, banklarga barqaror likvidlik ko'rsatkichlari bo'yicha talablar qo'yildi. Tijorat banklari muayyan miqdorda yuqori likvid aktivlarni ushlab turishi, uzoq muddatli aktivlar ulushini balanslash, qisqa muddatli bozor mablag'lariga ortiqcha tayanmaslik kabi mezonlar belgilandi. Markaziy bank ma'ruzalarida qayd etilishicha, likvidlikni boshqarish bo'yicha yangi vositalar banklardan ko'proq likvid aktivlar ushlashni, nolikvid aktivlar ulushini kamaytirishni va kreditlar muddatini maqbullashtirishni talab qilmoqda. Ushbu choralar banklarga likvidlik tangliklari paytida aktivlarni shoshilinch sotish, ya'ni fire-sale zaruratini kamaytiradi va tizimiy xavflarni pasaytiradi.

Fikrimizcha, O'zbekiston tijorat banklari bosqichma-bosqich Basel III standartlariga moslashmoqda. Ayrim yirik banklarda LCR va NSFR ko'rsatkichlari pilot tarzda qo'llanila boshlandi. Shuningdek, 2020–2025-yillarga mo'ljallangan Bank islohotlari strategiyasida banklarda risk-menejment tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro tajribani joriy etish vazifalari belgilangan. A. Abdullayev kabi mahalliy tadqiqotchilar likvidlik darajasini oshirish metodologiyasini likvidlik riskini samarali boshqarish asosida ishlab chiqish masalalarini o'rgangan bo'lsa, O. Sattorov tijorat banklari likvidligi va to'lov qobiliyatini ta'minlashda xorijiy tajribadan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilgan. Natijada bugungi kunda O'zbekistonda bank likvidligini baholashda xalqaro standartlar va mahalliy sharoitga mos yechimlar uyg'unlashuvi kuzatilmoqda. Markaziy bank va tijorat banklari darajasida likvidlik riskini oldindan ko'ra bilish, erta ogohlantirish indikatorlarini joriy etish va stress-test amaliyotini yo'lga qo'yish ishlari davom etmoqda.

Shuningdek, tijorat banklarida likvidlik riskini baholash metodologiyasi so'nggi yillarda ancha takomillashdi. Klassik nazariya tamoyillari, ya'ni muddatlarni moslashtirish va yuqori likvidli aktivlarga ega bo'lish zamonaviy risk-menejment vositalari, jumladan stress-testlar, LCR va NSFR kabi ko'rsatkichlar hamda real vaqt monitoringi bilan boyitilib, integratsiyalashgan yondashuvga o'tildi. Xorijiy va mahalliy olimlar fikricha, likvidlikni samarali boshqarish uchun bank o'z pul oqimlarini oldindan rejalashi, xavfli aktivlar ulushini kamaytirishi va "eng yomon ssenariy"ga doimo tayyor turishi zarur. O'zbekiston bank sektorida ham xalqaro tajriba asosida likvidlik riskini baholash va boshqarishning ilg'or usullari joriy etilmoqda. Bularning barchasi banklarning moliyaviy barqarorligini oshirishga, iqtisodiyotga ishonchli xizmat ko'rsatishga va kelgusidagi moliyaviy inqirozlarning oldini olishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda tijorat banklarida likvidlik riskini aniqlash, o'lchash va monitoring qilish metodologiyasi muhim ahamiyatga ega. Likvidlik riski bankning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida va yo'qotishsiz bajarish imkoniyati cheklanishi bilan bog'liq bo'lib, u bankning to'lovga qobiliyati hamda moliyaviy tizimga bo'lgan ishonchga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli likvidlik riskini baholash metodologiyasini takomillashtirish zamonaviy risk-menejmentning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

An'anaviy yondashuvlar asosan balans ko'rsatkichlariga, jumladan likvidlik koeffitsiyentlari va likvid aktivlar ulushiga tayanadi. Biroq bunday ko'rsatkichlar bank likvidligini statik holatda aks ettiradi. Zamonaviy metodologiya esa likvidlikni dinamik baholashga asoslanadi, ya'ni pul oqimlari prognozi, muddatlar bo'yicha likvidlik bo'shlig'i tahlili hamda stress-testlash orqali ehtimoliy xatarlarni oldindan aniqlashni nazarda tutadi.

Basel III doirasida qo'llaniladigan LCR va NSFR ko'rsatkichlari qisqa va uzoq muddatli likvidlik barqarorligini baholash imkonini beradi. Biroq amaliyotda bu ko'rsatkichlar real pul oqimlari, depozitlar xulq-atvori va konsentratsiya risklarini to'liq aks ettirmasligi mumkin. Shu bois metodologiya GAP tahlili, pul oqimlari monitoringi, stress-testlash, ILAAP jarayoni hamda konsentratsiya va xulq-atvor yondashuvlari bilan boyitiladi.

Bunday kompleks yondashuv banklarga likvidlik riskini erta aniqlash, likvid aktivlar buferini shakllantirish, resurs bazasini diversifikatsiya qilish va favqulodda moliyalashtirish rejalarini ishlab chiqish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarida likvidlik riskini baholash usullarini zamonaviylashtirish uchun, avvalo, ushbu riskni o'lchovchi ko'rsatkichlar tizimini xalqaro talablarga mos ravishda shakllantirish lozim. Hozirgi kunda O'zbekiston bank tizimida likvidlik holatini baholashda quyidagi asosiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

1. Lahzali likvidlik koeffitsiyenti – eng tez sotiladigan aktivlar (naqd pul va Markaziy bankdagi mablag'lar) ning talab qilib olinguncha depozitlarga nisbati.

2. Joriy likvidlik (LCR – Liquidity Coverage Ratio) – yuqori likvidli aktivlar hajmining 30 kunlik prognoz qilinadigan sof chiqib ketuvchi pul oqimlariga nisbati. Basel III standartiga ko'ra, mazkur ko'rsatkich 100 foizdan kam bo'lmasligi lozim.

3. Uzoq muddatli likvidlilik (NSFR – Net Stable Funding Ratio) – barqaror moliyalashtirish manbalarining (kapital va uzoq muddatli depozitlar) uzoq muddatli aktivlarga nisbati. Bu ko'rsatkich ham 100 foizdan yuqori bo'lishi talab etiladi.

4. Likvidlik bo'shlig'i (GAP) tahlili – aktiv va majburiyatlarning turli muddat toifalari kesimidagi nomutanosibligini aniqlash usuli. Bunda har bir muddat bo'yicha kutilayotgan pul tushumlari va to'lovlari farqi hisoblab chiqilib, bankning qaysi davr oralig'ida likvidlik yetishmovchiligi yuzaga kelishi mumkinligi aniqlanadi.


5. Likvidlikning xatar ostidagi qiymati (Liquidity VaR yoki G-LiVaR) – statistik usullar yordamida favqulodda vaziyatlarda bank qancha likvid mablag' yo'qotishi mumkinligini baholovchi ko'rsatkich. Ushbu usul turli ssenariylardagi potensial yo'qotishlarni hisoblashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2023-yilda tijorat banklari uchun likvidlilik riskini boshqarish yuzasidan yangi metodik qo'llanmani tasdiqladi. Ushbu hujjatda banklarning likvidlilik pozitsiyasini baholashda foydalaniladigan asosiy ko'rsatkichlar – LCR, NSFR, GAP va G-LiVaR tizimlari batafsil yoritilgan hamda har bir bank likvidlilik riskini boshqarish bo'yicha ichki siyosatni ishlab chiqishi, "likvidlilik buferi"ni shakllantirishi va favqulodda vaziyatlar uchun likvidlilik rejasiga ega bo'lishi lozimligi belgilangan. Shuningdek, barcha tijorat banklari o'z operatsiyalarining xususiyatlarini inobatga olgan holda likvidlilikni kundalik monitoring qilish imkonini beruvchi axborot tizimlariga ega bo'lishi talab etiladi. Likvidlilik bo'yicha qo'llanilayotgan ushbu yangi metodologiya xalqaro standartlarga muvofiq bo'lib, unda Basel qo'mitasining tavsiyalari inobatga olingan.

Metodologiyaning takomillashuvi shuni ko'rsatadiki, endilikda likvidlilik riskini baholash faqat oddiy nisbatlar, masalan, joriy likvidlilik koeffitsiyenti bilan cheklanib qolmaydi. Aksincha, miqdoriy modellashirish (Value-at-Risk usullari), stress-testlar va turli ssenariylarni sinovdan o'tkazish kabi ilg'or yondashuvlar ham joriy etilmoqda. Bu esa banklarga likvidlilik xatarlarini oldindan aniqlash va ularni yumshatish choralarini ko'rish imkonini beradi.

Agrobank ATB O'zbekiston bank tizimidagi yirik banklardan biri bo'lib, uning likvidlilik holati misolida yuqoridagi metodologiya va me'yorlarning amalda qanday tatbiq etilayotganini ko'rish mumkin. Bankning 2024–2025-yillar bo'yicha moliyaviy ko'rsatkichlaridan kelib chiqib, asosiy likvidlilik indikatorlari tahlil qilinadi. Quyida Agrobankning yuqori likvidli aktivlari hajmi va qisqa muddatli majburiyatlar summasi tahlil qilingan.


1-rasmda Agrobank ATBning 2024–2025-yillardagi asosiy likvidlilik ko'rsatkichlari – LCR (Liquidity Coverage Ratio) va NSFR (Net Stable Funding Ratio) dinamikasi aks ettirilgan. Grafikdan ko'rinib turibdiki, 2024-yilda bankning joriy likvidlilik ko'rsatkichi 132,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda ushbu ko'rsatkich 128,7 foizni tashkil qilgan. Mazkur holat qisqa muddatli majburiyatlar o'sish sur'atining yuqori bo'lishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, NSFR ko'rsatkichining 108,4 foizdan 111,2 foizga oshishi bankning uzoq muddatli barqaror moliyalashtirish bazasi mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Umuman olganda, ko'rsatkichlar Markaziy bank tomonidan belgilangan me'yorlardan yuqori bo'lsa-da, LCR bo'yicha pasayish tendensiyasi kelgusida likvidlilik risklarining kuchayishi mumkinligini ko'rsatadi (1-rasm).



1-rasm. Agrobank ATB likvidlilik ko'rsatkichlari (foizda)²

"Agrobank" ATB jami passivlari tarkibida bankning jami majburiyatlari salmog'i 2021-yilning 1-yanvar holatiga nisbatan 2025-yilning 1-yanvar holatiga 159 foizga oshgan. Shu bilan birga, kredit qo'yilmalari aktivlar tarkibida bankning jami kreditlar salmog'i 2021-yilning 1-yanvar holatiga nisbatan 2025-yilning 1-yanvar holatiga 137 foizga ko'tarilgan. Bu o'z-o'zidan bank likvidlilik rentabelligini ma'lum muddatga oshiradi (2-rasm).

2 www.agrobank.uz Agrobank ATB rasmiy sayti ma'lumotlari



2-rasm. Agrobank ATBning moliyaviy ko'rsatkichlari va kapital yetarliligi oshib borish dinamikasi³

Fikrimizcha, "Agrobank" ATB depozit bazasi sifatini oshirish va uning barqaror manbalardan tashkil topishini rag'batlantirish maqsadida bank marketingi doirasida bank xizmatlarining maxsus paketlari shakllantirilishi lozim. Bunda asosiy e'tibor katta miqdordagi pul mablag'larini uzoq muddatli, odatda 3 yildan ortiq, depozitlarga joylashtirgan mijozlarga bankning boshqa xizmatlari bahosidan chegirmalar taqdim etishga qaratilishi kerak. Bu, birinchidan, depozit bazasi sifatini oshirishga, ikkinchidan, likvid mablag'larga bo'lgan talabni barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Chunki talab qilib olinguncha depozitlar aktivlar tarkibidagi kreditlarning yetarli darajada ta'minlanmaganligini oshirishi mumkin. Bu holat bank likvidligini pasaytirishi ehtimolini kuchaytiradi.

Yuqoridagi tahlil natijalaridan kelib chiqib, fikrimizcha, respublikamiz bank tizimi depozit bazasi tarkibida transaksion depozitlar salmog'ini keskin pasaytirish lozim. Bu maqsadda 1 yildan ortiq muddatga qo'yilgan so'mdagi va xorijiy valyutadagi depozitlarni majburiy zaxira talablaridan to'liq ozod qilish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalaridan kelib chiqib, quyidagi muammoli jihatlar aniqlandi:

Birinchidan, LCR ko'rsatkichining pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda. 2024-yilda 132,5 foizni tashkil etgan LCR ko'rsatkichi 2025-yilga kelib 128,7 foizni tashkil qilmoqda. Ushbu holat bank majburiyatlarining, ayniqsa talab qilib olinguncha depozitlar hajmining yuqori sur'atlarda o'sishi bilan izohlanadi. Mazkur tendensiya davom etadigan bo'lsa, qisqa muddatli likvidlik riskining kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Ikkinchidan, bank passivlari tarkibida qisqa muddatli majburiyatlar ulushining yuqoriligi likvidlik barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Talab qilib olinguncha depozitlar likvidlik nuqtayi nazaridan eng xavfli manba hisoblanib, ularning keskin yechib olinishi bankda to'lov qobiliyati bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Uchinchidan, bank aktivlari tarkibida uzoq muddatli kreditlar ulushining yuqoriligi aktivlar va majburiyatlar muddatlari o'rtasida nomutanosiblikni yuzaga keltirmoqda. Ushbu holat likvidlik bo'shlig'ining kengayishiga sabab bo'lib, stress holatlarda bankning likvid resurslariga bo'lgan ehtiyojini oshiradi.

To'rtinchidan, moliya bozorlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli bankning likvid bo'lmagan aktivlarni tezkor realizatsiya qilish imkoniyatlari cheklangan. Bu esa kutilmagan likvidlik shoklari yuzaga kelganda bankning tashqi manbalarga qaramligini kuchaytiradi.

Yuqorida aniqlangan muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Likvidlik buferini kuchaytirish. Agrobank tomonidan yuqori likvidli aktivlar ulushini oshirish, xususan, Markaziy bankdagi mablag'lar va davlat qimmatli qog'ozlari portfelini kengaytirish maqsadga muvofiq. Bu bankning qisqa muddatli likvidlik bosimlariga nisbatan chidamliligini oshiradi.

2. Aktiv va passivlar muddatlarini muvofiqlashtirish. Bank kredit siyosatini qayta ko'rib chiqib, uzoq muddatli kreditlar ulushini jalb qilinayotgan resurslar muddatlariga moslashtirishi lozim. Aktivlar va majburiyatlar o'rtasidagi muddat nomutanosibligini kamaytirish orqali likvidlik riski sezilarli darajada pasaytiriladi.

3. Depozitlar bazasini diversifikatsiya qilish. Qisqa muddatli va talab qilib olinguncha depozitlarga bog'liqlikni kamaytirish maqsadida aholi va korporativ mijozlar uchun uzoq muddatli depozit mahsulotlarini rag'batlantirish zarur. Bu bank resurs bazasining barqarorligini oshiradi va NSFR ko'rsatkichini mustahkamlaydi.

3 Agrobank ATBning rasmiy sayti ma'lumotlari <https://agrobank.uz/uz/shareholders-and-investors/financial>

4. Stress-test va ssenariy tahlillarini kengaytirish. Bank tomonidan likvidlik riskiga doir stress-testlar muntazam o'tkazilib, depozitlarning keskin kamayishi yoki moliyaviy bozorlarda likvidlik tanqisligi yuzaga keladigan salbiy ssenariylar baholanishi lozim. Ushbu yondashuv likvidlik risklarini oldindan aniqlash imkonini beradi.

5. Likvidlik riskini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish. Likvidlik riskini baholashda faqat an'anaviy ko'rsatkichlar bilan cheklanib qolmasdan, zamonaviy statistik va modellash usullarini (GAP tahlili, stress-test, prognozli likvidlik modeli) keng qo'llash tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, Agrobank ATB misolida o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, bankning likvidlik ko'rsatkichlari normativ talablarga javob bersa-da, majburiyatlar tarkibidagi qisqa muddatli resurslar ulushining ortishi va LCR ko'rsatkichining pasayish tendensiyasi kelgusida likvidlik risklarining kuchayish ehtimolini yuzaga keltirmoqda. Shu sababli bank likvidligini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish strategik ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullaeva, Sh. (2010). Pul va banklar. Toshkent: Iqtisod-Moliya.
2. Akbarov, M. A. (2022). Tijorat banklarida likvidlik riskini boshqarishni takomillashtirish. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2, 45–56.
3. Basel Committee on Banking Supervision. (2013). Basel III: The liquidity coverage ratio and liquidity risk monitoring tools. Bank for International Settlements.
4. Basel Committee on Banking Supervision. (2014). Basel III: The net stable funding ratio. Bank for International Settlements.
5. Bouwman, C. H. S. (2013). Liquidity: How banks create it and how it should be regulated. In A. N. Berger, P. Molyneux, & J. O. S. Wilson (Eds.), *The Oxford handbook of banking* (2nd ed., pp. 29–31). Oxford University Press.
6. Jorda, O., Richter, B., Schularick, M., & Taylor, A. M. (2017). Bank capital redux: Solvency, liquidity, and crisis. Federal Reserve Bank of San Francisco Working Paper Series, 2017-02.
7. Ryan, N., Banerjee, S., & Mio, H. (2018). The impact of liquidity regulation on banks. *Journal of Financial Intermediation*, 35(B), 30–44. <https://doi.org/10.1016/j.jfi.2017.08.001>
8. Valla, N., Saes-Escorbiac, B., & Tieset, M. (2010). Bank liquidity and financial stability. *IFC Bulletin*, 28, 73–90.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100